



KICHIK VA O`RTA BIZNESNING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O`RNI VA AHAMIYATI

Sobirova Marhabo Haitovna

Toshkent kimyo-texnalogiya instituti Shahrishabz filiali, O`qituvchi
+998919498839 (sobirovamarhabo87@gmail.com)

Egamberdiyev Azizbek Komiljon o`gli

Toshkent kimyo-texnalogiya instituti Shahrishabz filiali, Talaba
+998904754347 (azizbekegamberdiyevv@gmail.com)


Annatatsiya: Mazkur maqolada kichik va o`rta biznesning milliy iqtisodiyotdagi o`rni va ahmiyati, rivojlanish tendensiyalari, duch kelayotgan muammolar hamda istiqbolli yo`nalishlar o`rganiladi. Bu tahlil orqali kichik va o`rta biznesning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi hal qiluvchi roli ko`rsatib beriladi. Kichik va o`rta biznesning ijobjiy va sabiy tomonlari o`rganilib taklif va yechimlar beriladi va kelajakda istiqbollari haqida fikrlar aytildi.

Kalit so`zlar: aholi, bandlik, kichik biznes, o`rta biznes, hukumat, eksport, kichik korxonalar, O`zbekiston, tajriba, raqobat

Bugungi global iqtisodiyotda kichik va o`rta biznes mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishida muhim o`rin tutadi. Bu sektor iqtisodiy faollikni oshirish, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim vosita sifatida e'tirof etiladi. Juhon tajribasi shuni ko`rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida kichik va o`rta biznes iqtisodiyotning asosiy tayanch ustunlaridan biri hisoblanadi. Kichik va o`rta biznes nafaqat yangi ish o`rinlarini yaratish, balki innovatsiyalarni joriy etish, raqobat muhitini shakllantirish va mahalliy resurslardan samarali foydalanish orqali milliy iqtisodiyotni mustahkamlashda ham katta ahmiyatga ega. Ushbu sohaning samarali faoliyati davlatning iqtisodiy o'sish ko`rsatkichlarini yaxshilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekiston sharoitida kichik va o'rta biznes iqtisodiyotning dinamik sohalaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi aholini ish bilan ta'minlash, YAIMni oshirish va hududiy muvozanatni ta'minlashda katta hissa qo'shamoqda. Shuningdek, davlatning kichik va o'rta biznes ni qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borayotgan chora-tadbirlari sektorining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Kichik va o'rta biznes (KOB) iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Kichik va o'rta biznesning ning milliy iqtisodiyotdagi asosiy vazifasi – yalpi ichki mahsulot (YAIM) shakllanishiga hissa qo'shishdir. Ko'plab rivojlangan davlatlarda kichik va o'rta biznesning YAIMning 50% dan ortig'ini tashkil etadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi ulushi 60–70% ni tashkil qiladi. O'zbekistonda esa ushbu ko'rsatkich so'nggi yillarda 50% dan oshgan. Kichik va o'rta biznesning, o'zining moslashuvchanligi va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati tufayli iqtisodiy inqiroz davrlarida ham barqaror ishlashni ta'minlaydi. Ular iqtisodiyotning har bir sohasida faoliyat yuritib, bozor talablariga tez javob bera oladi. Bu esa ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlashga yordam beradi va tashqi bozorlarga eksport imkoniyatlarini oshiradi.


YIMning kichik va o'rta biznes subyektlari orqali hosil bo`ladigan ulushi (2018—2020-y.; %da)
Manba: BMT Yevropa iqtisodiyot komissiyasi



YaIM kichik va o'rta biznes subyektlari orqali hosil bo`ladigan ulushi

Shuningdek, kichik va o'rta biznesning davlat byudjetiga katta hajmda soliq tushumlarini ta'minlaydi. Bu moliyaviy barqarorlikning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, kichik va o'rta biznes yangi ish o'rinalarini yaratishning asosiy manbalaridan biridir. Kichik va o'rta biznesning sektorining rivojlanishi bandlik darajasini oshirish va ishsizlikni kamaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, global miqyosda kichik bizneslarda band bo'lgan xodimlar umumiyligi kuchining 60–70% ni tashkil etadi. O'zbekistonda esa kichik va o'rta biznesningda band bo'lganlar mamlakatdagi umumiyligi kuchining qariyb 78% ini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich kichik biznesning aholini ish bilan ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Kichik va o'rta biznesning nafaqat bandlikni oshiradi, balki iqtisodiy faollikni ham rag'batlantiradi. Ayniqsa, qishloq joylarida kichik biznesni rivojlantirish orqali aholining turmush sharoitlarini yaxshilash mumkin. Shuningdek, kichik va o'rta biznesning aholi uchun moslashuvchan ish sharoitlarini ta'minlaydi va ijtimoiy muammolarni hal qilishga ko'maklashadi. Raqobat muhitini shakllantirilishiga olib keladi. Bunda bozorda sog'lom raqobat muhitini shakllanishida kichik va o'rta biznesning o'rni katta bo'ladi. Kichik va o'rta biznesning monopoliyalarning paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladi va turli sohalarda faoliyat yuritib, iste'molchilar uchun mahsulot va xizmatlar tanlovini kengaytiradi. Raqobat muhitni shakllanishi iste'molchilar manfaatiga xizmat qiladi, chunki raqobat narxlarning pasayishiga va mahsulot sifatining oshishiga olib keladi. Kichik bizneslarning bozorda mavjudligi yirik korxonalarini mahsulotlarining sifatini yaxshilashga majbur qiladi, bu esa iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, kichik va o'rta biznesning o'zining moslashuvchanligi tufayli innovatsiyalarni tezkor ravishda joriy etib, bozorda yangi texnologiyalarni tatbiq etishga turki beradi. Bu esa milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi va uning xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlaydi.





Osiyo taraqqiyot banki kichik va o'rta biznes subyektlari monitori 2023-yil

2. Kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar mavjud.

Kichik va o'rta biznesning rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ular ijobiy va salbiy jihatlarda namoyon bo'ladi. Ushbu omillar biznesning samaradorligi, barqarorligi va iqtisodiyotga qo'shadigan hissasiga bevosita ta'sir qiladi. Quyida kichik va o'rta biznesga ta'sir qiluvchi asosiy ijobiy va salbiy omillarni keltirib chiqaradi. Ijobiy omillarning bir nechtalarinko'rib chiqamiz. Bunda birinchisi davlat siyosati va qo'llab-quvvatlash choralarini hisoblanadi. Bunda kichik biznesni rivojlantirishda davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar va qo'llab-quvvatlash dasturlari muhim rol o'yndaydi. Bunga quyidagilar kiradi: Soddalashtirilgan soliq tizimi va imtiyozli kreditlar, O'zbekiston'dagi "Har bir oila – tadbirkor" loyihasi, davlat tomonidan subsidiyalar va grantlarning ajratilishi kabi dasturlar misolbo`la oladi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar va yangi innovatsiyalar kichik biznesning samaradorligini oshiradi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, masofaviy xizmatlarni ko'rsatish va elektron tijorat imkoniyatlari kichik biznesga yangi bozorlarni ochib beradi.

Uchinchidan, sog'lom raqobat muhiti kichik biznesning rivojlanishi uchun asosiy omillardan biridir. Bozorda teng imkoniyatlarning mavjudligi va monopoliyalarni cheklash kichik korxonalar uchun qulay sharoit yaratib beradi. Mahalliy iste'molchilarining ehtiyojlari va talablari biznesni rivojlantirish uchun motivatsiya bo'lib xizmat qiladi. Kichik va o'rta biznesning ichki bozorni to'ldirish va iste'molchilar uchun mahsulot va xizmatlar xilma-xilligini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Shu sabab kichik va o'rta biznes xalqaro bozorlarga chiqish orqali o'z faoliyatini kengaytirishi mumkin. Eksportni rag'batlantiruvchi davlat dasturlari va xalqaro tashkilotlarning qo'llab-quvvatlovi bu yo'nalishda muhim ahamiyatga egabो`ladi.

Ijobiy omillari mavjud bo`lgani kabi bularniamalga oshirishga to`sinqinlik qiluvchi ko'plab salbiy omillar ham mavjud. Biz bu natijaga erishayotganimizda birinchi bo'lib moliyalashtirishdagi qiyinchiliklar duch kelamiz. Bunda kichik



bizneslar ko‘pincha moliyaviy resurslarning yetishmasligi bilan duch keladi. Banklar tomonidan taqdim etiladigan kreditlarning yuqori foiz stavkalarini yoki kredit olish shartlarining murakkabligi biznesni rivojlantirishni cheklab qo`yadi. Keyingisi esa yirik korxonalar bilan raqobat qilishda kichik bizneslar ko‘pincha yetarlicha resurs va texnologiyaga ega emas. Bu esa ularning bozorda o‘z o‘rnini mustahkamlashiga to‘sinqinlik qiladi. Shu sabab biz korrupsiya va yuridik to‘sqliarga duch kelamiz. Bunda ba’zi mamlakatlarda kichik bizneslar korrupsiya va davlat idoralaridagi byurokratik jarayonlar bilan to‘qnashadi. Bu esa biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish, litsenziya olish va faoliyatni davom ettirishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari biz boshlagan biznesda ishchi quvvatining malakasi pasligi hambo`lishi mumkin. Kichik bizneslar ko‘pincha malakali kadrlarni jalb qilishda qiyinchilikka duch keladi. Malakali xodimlarning yetishmasligi ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi va raqobatbardoshlikni kamaytiradi. Qishloq joylarida va rivojlanmagan hududlarda kichik biznesni rivojlantirishda infratuzilma va transport tizimining yetarli darajada emasligi asosiy muammo hisoblanadi. Bu esa mahsulotni yetkazib berish, xomashyo xarid qilish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonini qiyinlashtiradi. Ichki bozordagi talabning cheklanganligi yoki eksport bozorlariga chiqishdagi qiyinchiliklar kichik biznesning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Dunyobo`yicha kichik va o`rta biznesni rivojlantirish bo`yicha tajribalar olib boradi, Misol uchun “Mittelstand” modeli Germaniya tajribasi hisobanadi. Bu modelda ko`plab kichik va o`rta bizneslar oilaviy tarzda boshqariladi va uzoq muddatli rivojlanishga qaratilgan bo`ladi. Kichik va o`rta bizneslarni rivojlantirish uchun hukumat tadbirkorlarni qo`llab-quvvatlash maqsadida qulay soliq rejimlari va kreditlash dasturlarini joriy qilgan. Asosiy maqsadi Germaniya kichik va o`rta bizneslari xalqaro bozorlarga chiqishga katta e’tibor qaratadi va o‘z mahsulotlarini global miqqosda sotadi. Natijada esa, Germaniya kichik biznes YaIMning qariyb 54% ini tashkil qiladi va 70% ishchi kuchini ta’minlaydi.

Yana bir tajriba bu Yaponcha tajriba hisoblanadi. Bunda Yaponiya kichik va o`rta biznesni rivojlantirish uchun starategiyalarni amalga oshiradi. Hukumat kichik va o`rta bizneslar uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etsih bo`yicha maxsus



dastur ishlab chiqadi. Yirik korxonalar bilan hamkorlik qilish uchun maxsus markazlarni tashkil etgan. Buning sababi kichik biznesga ishlab chiqarish zanjirida ishtirok etish imkonini beradi. Buning uchun hukumat past foizli kreditlar va grantlar taqdim etadi. Buning natijasida Yaponiyada kichik va o'rta biznes iqtisodiy inqiroz davrlarida ham barqaror ishlashga yordam beradi. Shu sababli mamlakat eksportining katta qismini ta'minlaydi. Bu tajribalar kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini kuchaytirish uchun turli mamlakatlarda qo'llangan samarali usullarni ko'rsatadi. O'zbekiston ham ushbu tajribalardan foydalangan holda o'z iqtisodiy siyosatini yanada takomillashtirishi mumkin.

O'zbekistonda bu sohda ko'plab muammolar mavjud. Masalan: Ko'plab kichik korxonalar uchun boshlang'ich kapital yoki ish faoliyatini kengaytirish uchun mablag' yetishmaydi. Kredit olish shartlari qattiq yoki foiz stavkalari juda yuqori bo'lishi mumkin. Bu muammoni hal qilish uchun davlat tomonidan past foizli yoki uzoq muddatli kredit dasturlarini kengaytirish, innovatsion va eksportga yo'naltirilgan loyihalar uchun moliyaviy yordam ko'rsatish va vechur fondlari va kraufdfunding platformalarini rivojlantirish kerak. Keyingi muammo bu faqat kichik va o'rta biznes sohasida emas balki ko'plab sohalarda kuztilmoqda. Bu malakali kadrlarning yetishmasligi hisoblanadi. Bunda ko'plab kichik korxonalar malakali mutaxassislarni jalb qilishda yoki o'z xodimlarining malakasini oshirishda qiyinchilikka duch keladi. Shu sababli ta'lim dasturlarini rivojlantirish kerak. Buning uchun davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan biznes boshqaruvi va texnik ko'nikmalar bo'yicha treninglar tashkil etilishi va aniq maqsadlar hamda kelajakda rejalar bo'yicha fikr almashuvlari bo'lishi zarur. Yosh mutaxassislarni jalb qilish uchun korxonalar va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yish bilan bir qatorda onlayn kurslar orqali xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha masalalar ko'rib chiqilib maxsus dasturlar asosida ishlar amalga oshirilishi kerak. Agar shunga o'xshash muammolar hal qilinsa mamlakatimizdagi ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmat ko'rsatish sohalari bo'yicha mamalakatimiz yuqori o'rnlarni egallaydi.



Xulosa qilib aytganda, kichik va o‘rta biznes iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash, aholi turmush darajasini oshirish va mamlakatni xalqaro iqtisodiyotga integratsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu sektorni rivojlantirish davlat siyosati va xususiy sektor tashabbuslarini birlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu esa nafaqat iqtisodiy o‘sishni, balki jamiyatning ijtimoiy va ekologik barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘ladi. Kichik va o‘rta biznes bo`yicha kelajakda quvonarli proqnozlar bo`lishi ko`zda tutilmoqda. Bulardan biri innovatsion g‘oyalarga asoslangan kichik korxonalar uchun qulay sharoitlar yaratilishidir. Eksport salohiyatini oshirish bo`yicha esa kichik biznes uchun davlat ko‘magida eksport imkoniyatlari kengayadi, xalqaro savdo-sotiqa ishtirok etish osonlashadi. Raqobatbardosh mahsulotlar yaratish tufayli mahalliy ishlab chiqaruvchilar global talab va standartlarga mos ravishda yangi mahsulotlarni rivojlantirishga e’tibor qaratadi. Xalqaro hamkorlik sababli esa kichik bizneslar chet el sarmoyadorlari bilan hamkorlik qilib, texnologiyalar va tajribani o‘zlashtiradi. Hududiy korxonalar tarmog‘ini kengaytirish orqali esa qishloq joylarda yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali iqtisodiy o‘sish ta’minlanadi.

Agrar soha bilan integratsiya qilinib qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishslash va qishloq joylarda kichik korxonalar tashkil etish orqali mahalliy iqtisodiyot rivojlantiriladi. Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiy barqarorlik, bandlik va raqobatni shakllantirishdagi o‘rni nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy rivojlanishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, KOBni rivojlantirish uchun davlat tomonidan maxsus dasturlar va imtiyozlar taqdim etilishi lozim. Ijobiy omillar kichik biznesni rag‘batlantirsa, salbiy omillar uning o‘sishiga to‘sqinlik qiladi. Ushbu salbiy omillarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, kichik biznes uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish va korrupsiyaga qarshi kurashish muhimdir. Bu chora-tadbirlar kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rnini yanada oshiradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Abduqodirov A., Xasanov B. "Tadbirkorlik asoslari va kichik biznesni boshqarish" - Toshkent, 2020.



2. Soliev S., Xojiboyev A. "Iqtisodiyot nazariyasi" - Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Karimov U. "Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning dolzarb masalalari" - Iqtisodiyot va statistika jurnali, 2021.
4. Jahon banki hisoboti. "Rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznesning o'rni va istiqbollari" - 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid strategik chora-tadbirlar" - 2021-yil.
6. Qodirov R. "Tadbirkorlik va biznesni boshqarish" - Toshkent: O'zbekiston, 2018.
7. OECD hisoboti. "Kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish va eksport salohiyatini oshirish" - 2020.
8. Yusupov N. "Innovatsion iqtisodiyot va kichik biznes" - Toshkent, 2022.
9. Statistika qo'mitasi ma'lumotlari. "O'zbekistonda kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'mi" - 2023-yil.
10. Internet manbalari: www.stat.uz, www.lex.uz, www.worldbank.org.
11. <https://images.app.goo.gl/jyx2F4ZjcwS8zxWE7>
12. <https://images.app.goo.gl/7BpwTdpY7Bp1JBWt9>